

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

I.A.Qo‘chqarov

Hayot faoliyati xavfsizligi kursida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish hamda yong‘in xavfsizligini ta’minlash yo’nalishida amaliyat organlarini o’qitish metodikasi 533

L.E.Bobomurodova

Talabalar mustaqil ta’limini shakllantirishning muhim pedagogik omillari 537

U.M.Nomozov, Z.A.Jabbarov, B.T.Jobborov

Neft uglevodorodlari bilan ifloslangan sho‘rlangan tuproqlarlarning rekultivasiyadan so‘ng biologik xossalalarini o‘zgarishi 541

B.B. Nizomova

Maktab 7-sinf biologiya darsligidagi “Bakteriyalar, Protistalar, Zamburug‘lar” mavzusida tabiiy fanlar integratsiyasini ta’limdagi ahamiyati 546

Z.M.Mamatov

Quyon terisining fizik-kimyoviy xususiyatlarini o’rganish 550

N.A.Quldashev, M.Rahmatova

Ayrim nutq ko’rinishlarida agnonim so‘zlarning qo’llanishi 553

D.J.Nizomiddinov

Germaniyalik sharqshunos va islomshunos Tilman Nagel Amir Temur shaxsi haqida 555

I.I.Rustamova

Dramada sahnada ko’rinmaydigan qahramon va uning badiiy talqini 558

D.R.Ruzmatova, Sh.A.Begimkulova

Afg'on-amerika diaspora adabiyotida diniy va dunyoviy ta’lim: ayol, oila va jamiyat 562

GERMANIYALIK SHARQSHUNOS VA ISLOMSHUNOS TILMAN NAGEL AMIR TEMUR SHAXSI HAQIDA

НЕМЕЦКИЙ ВОСТОКОВЕСТ И ИСЛАМИСТ ТИЛЬМАН НАГЕЛЬ О ЛИЧНОСТИ АМИРА ТЕМУРА

GERMAN ORIENTALIST AND ISLAMIST TILMAN NAGEL ABOUT THE PERSONALITY OF AMIR TEMUR

Nizomitdinov Doniyorjon Jaloldin o'g'li¹

¹Farg'onan davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada Amir Temur va temuriylar haqida ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan germaniyalik islomshunos olim Tilman Nagelning ilmiy faoliyati haqida qisqacha ma'lumot berilgan. Shuningdek, Tilman Nagelning Amir Temur shaxsiyati, uning davlatchilik faoliyati haqidagi qarashlari tahlil etilgan. Bundan tashqari Amir Temur vafotidan so'n taxt uchun kurash jarayonlari haqidagi fikirlari ham tahlil qilingan.

Аннотация

В статье представлена краткая информация о научной деятельности Тильмана Нагельнина, немецкого исламоведа, проводившего научные исследования об Амире Тимуре и Тимуридах. Также анализируются взгляды Тильмана Нагеля на личность Амира Темура и его государственную деятельность. Кроме того, анализируются мысли Амира Темура о борьбе за престол после его смерти.

Abstract

This article provides brief information about the scientific activity of Tilman Nagel, a German Islamic scholar who conducted scientific research on Amir Timur and the Timurids. Also, Tilman Nagel's views on the personality of Amir Temur and his state activities are analyzed. In addition, Amir Temur's thoughts about the struggle for the throne after his death are also analyzed.

Kalit so'zlar: Tilman Nagel, Amir Temur, Arab Xalifaligi, Xalil Sulton Mirzo, davlatchilik, Anqara jangi, Hindistonga yurush.

Ключевые слова: Тильман Нагель, Амир Тимур, Арабский халифат, Халил Султан-Мирза, государственность, битва при Анкаре, поход на Индию.

Key words: Tilman Nagel, Amir Timur, Arab Caliphate, Khalil Sultan Mirza, statehood, Ankara battle, march to India.

KIRISH

Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda tarixga yangicha nazar bilan qaralmoqda. Xalqning o'z yurti, tili, madaniyati, qadriyatları tarixini bilishga o'zligini anglashga qiziqish ortib bormoqda. Vatan tarixini xolis, to'laqonli tarzda yoritib berish eng avvalo tarixchilar oldiga katta ma'suliyatni yuklaydi. Shu o'rinda Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Bir haqiqatni barchamiz chuqur anglab olishimizkerak: milliy tarixni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizga milliy ruhda yetkazish, ularning qalbiga, shuuriga singdirish kerak. Aks holda, uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi" [1].

O'zbekiston olimlari tomonidan tariximizni o'rganilishi Yangi O'zbekistonda yangi bosqichga ko'tarildi. Shu o'rinda Temuriylar davlati tarixini ham keng qamrovli o'rganish ishlari tizimli amalga oshirib kelinmoqda. Temuriylar davlati nafaqat O'zbekiston balki butun dunyo olimlarini ham Amir Temur va uning avlodlariga qiziqib kelmoqda. Yevropalik sharqshunos, islomshunos, turkshunos hamda eronshunos olimlar tomonidan Amir Temur va temuriylar davri haqida ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Shuningdek, germaniyalik olimlar tomonidan ham Amir Temur va temuriylar davri haqida salmoqli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

XX asrda germaniyada Amir Temur va temuriylar davri tarixi haqida olib borilgan ilmiy tadqiqotlardan eng yiriklaridan biri bu islomshunos olim Tilman Nagelning "Fotih Timur va so'ngi o'rta asrlarda islam dunyosi" asaridir.

Tilman Nagel 1942-yil 19-aprelda Germaniyaning Kotbus shaharchasida tavallud topgan. U islom olami haqida bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari olib brogan. Shu asnoda 1993-yil uning "Fotih Temur va so'nggi o'rta asrlarda Islam olami" ("Timur der Eroberer und die islamische Welt des späten Mittelalters") asari nashr etilgan.

Tilman Nagel asarining kirish so‘zida shunday deyilgan. Jumladan, “Hech qachon hech bir qo‘mondon bunchalik aqilli bo‘limgan, hech kum uningchalik qo‘sishin tashkil qilmagan va unga rahbarlik qilmagan. U hurukmronlik davrida butun dunyo bo‘ylab g‘alaba qozonganligi ajablanarli” – deb ta‘kidlaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Tilman Nagelning “Fotih Temur va so‘nggi o‘rtta asrlarda Islom olami” asari 4 qisimdan iborat bo‘lib, birinchi qismi “Davrga yaqinlash” deb nomlanib, unda Bog‘dodning 1256-yildagi holati, Arab xalifaligining qulashi va uning sabablari, mo‘g‘ul qo‘sishinlarining vayronagarchiliklari, Chingizxon imperiyasining bo‘linishi, Chig‘atoj ulusining tashkil topishi va uning parchalanishlari bayon qilinadi.

Asarning ikkinchi qismi voqeа hodisalar va ularning ta’siri deb nomlanib, ushbu qismda Amir Temurning siyosat maydoniga chiqishi, Amir Husaynni Amir Temur bilan munosabatlari hamda uning halokati, Erondagи vaziyat, ichki va tashqi dushmanlar, Xorazimga, Mo‘g‘illistonga qilingan yurushlar, Eron tomon qo‘sish tortish, Oq O‘rdaga qilingan yurushlar, Muzaffariylarning bo‘ysindirilishi, To‘xtamish va u bilan munosabatlар hamda uning ustidan ikkinchi g‘alabasi bayon etilgan.

Asarning uchinchi qismi eng yirigi bo‘lib, unda butun boshli mamlakatni boshqarilishi, Amir Temurning ding ava diniy rohiblarga munosabatlari, “Yetti yillik” urushning boshlanishi, uning sabablari va urush natijalari bayon qilinadi. Asarning ushbu qismida Amir Temurning Usmoniyalar saltanati hukumdori Boyazid Yildirim bilan munosabatlari, ular o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar, Boyazid Yildirimning Amir Temurga qarshi qaratilgan harakatlari, va nihoyat 1402-yilda yuz bergan Anqara jangi bayon etiladi.

Asarning xotimasi bo‘lmish to‘rtinchи qismi, “Dunyo ustida kuch” deb nomlanib, Amir Temurning Hindistonga yurushi, Xitoy bilan aloqalari, Xitoya qarshi harbiy harakatlaning boshlanishi, Amir Temurning Xitoya qarshi yurushi davrida vafot etishi hamda Amir Temur vafot etganidan so‘ng saltanatdagi siyosiy vaziyat, taxt uchun kurash jarayonlari, Xalil Sulton Mirzoning Samarqand taxtiga chiqishi hamda uning boshqaruvining yakuni bayon etiladi.

Ushbu ilmiy tadqiqot ishi yakuni xronologik, genealogik jadvallar va muhim tushinchalar bilan boyitilgan.

Tom manoda asar haqida shuni aytish mumkinki, Tilman Nagelning ushbu kitobii tanqidiy ruhda yozilgan. Unda Amir Temur shaxsiyati tanqid ostiga olinadi. Ammo, Tilman Nagel Amir Temurning chinakam ma’noda jahongashta hukomdor ekanligi, uning mamlakatning birlashtirish yo‘lidagi harakatlari, eng avvalo, uning davlatchilik yo‘lidagi harakatlarini umum e’tiro etadi.

Tilman Nagelning ayrim so‘zlarini haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi. Buni tarixiy manbalar hamda hozirgi zamon nazari bilan ham aytish mumkin.

Tilman Nagel Amir Temurning faoliyati haqida shunday deydi: “Bugungi kunda tarixshunoslikning bu sarkardaga nisbatan hukmi halokatli. Yevropada Tamerlan deb atalgan mo‘g‘ulistonlik. Eng chafqatsiz va varcha davrlarning eng buyuk qassobidir, hatto Chingizzondan ham qattiqroq. U Rossiyadan Hindistongacha butun dunyoga dahshat va o‘limni tarqatdi. Kichik Osiyodan Xitoy chagaralarigacha vayronalardan boshqa hech narsa qoldirmadi. U o‘lkalardan hunarmandlar va san’atkorlarni Samarqandni kengaytirish uchun majburan o‘g‘irlab olib ketdi”[2].

Tilman Nagel asarni yozishda asosan Ibn Arabshohning “Ajoib ul-maqdur fi axbori Temur” (“Temur haqidagi xabarlarda taqdir ajoyibotlari”) asaridan foydalangan. Bundan tashqari Tilman Nagel tadqiqotda fors hamda usmonli turk manbalariga ham tayanadi. Ayni holatda ko‘rish mumkinki, Tilman Nagel qarashlarida Amir Temur shaxsiyatiga bir tomonlama yonashuv mavjud.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlash joizki, Amir Temur va temuriylar davri O‘zbekiston tarixining eng yorqin davrlaridan biri hisoblanadi. Amir Temur mohir sarkarda, buyuk davlat arbobi, Vatan va jahon tarixida o‘zining muhim o‘rni bilan jahongashta sarkardalar orasida eng mashhuridir. Shuni ta‘kidlash mumkinki, Amir Temur va temuriylar davri tarixi yevropalik olimlar tomonidan aksariyat holatlarda tanqidiy yondashuv asosida yoritilgan. Yuqorida aytib o‘tilgan islomshunos olim Tilman Nagel o‘z asarida Amir Temurni mo‘g‘ul hamda yirik bosqinchi sifatida ta‘riflaydi. Ammo Germaniyada bugungi kunda Amir Temur shaxsiyatiga boshqacha nazar bilan qaralmoqda. Masalan, germaniyalik sharqshunos olim Ralf Kauz Amir Temurni turkiy ekanligi, davlatni adolatli

boshqarganligi, xorijiy mamlakatlar bilan mohir diplomatik tarzda munosabatlар olib borganligi, salatanat tarkibidagi barcha hududlarda me'morchiilik, san'at, madaniyat rivojlantirilganini ta'kidlab o'tadi. Bu esa Amir Temur shaxsiyatiga dunyo olimlari ijobiy tarzda qarayotganligini yorqin misolidir. Shu o'rinda Temuriylar davlatini tarxiy manbalar orqali taddiq etib, dunyoga xolis, to'laqonli yoritish eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Shunda dunyo xalqlari "Tamerlan" emas, balki Amir Temur deb atalishiga, uni mo'g'ul emas, aksincha turkiy ekanligini to'liq anglab yetilishiga erishamiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev.Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent.: O'zbekiston, – 416 bet
2. Tilman Nagel. Timur der Eroberer und die islamische Welt im späten Mittelalter. Munchen. Beck Verlag, 1993. – 531 S..
3. Ralph Kauz: Politik und Handel zwischen Ming und Timuriden. China, Iran und Zentralasien im Spätmittelalter. Reichert, Wiesbaden. 2005. – 289 S.
4. "O'zbekiston madaniy merosi" mualliflik turkumi: "Germaniya federative respublikasi to'plamlari" kitob albomi / F.F. Abduxoliquov, E.V. Rtvladze, N. fon Axenbax, D. Bumiller, D. Ilyasov, K. Raux, A. Miersultan, G. Xelmeke, I. Pflyuger-Shindlbek, A. Kremer, M. Ando, S. Yansen, X. Shukelt, B.Templin // Toshkent: "East Star Media", 2020. – 496 b.
5. <https://www.deutsche-digitale-bibliothek.de>
6. <https://www.dnb.de>
7. <https://www.amazon.de>
8. <https://buecherei.bietigheim-bissingen.de>